XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 3-noyabr VII-15-147-6-0-K/25 Namangan viloyati

Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yil uchinchi hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasiga asosan, Namangan viloyati hokimining 2025-yil 13-oktabrdagi 01/10-1296-sonli taqdimnomasi hamda Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari M.Abdullayevning hisoboti asosida, Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yil uchinchi hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 126-moddasiga asosan, viloyat hokimligining Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashiga taqdim etgan taklifiga muvofiq, Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yil uchinchi hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishi hisobidan ilovaga muvofiq, 29 440 016,0 (yigirma to‘qqiz milliard to‘rt yuz qirq million o‘n olti) ming so‘m mablag‘lar yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2025-yil 31-iyuldagi VII-13-108-6-0-K/25-son qarori 1-ilovasining “2-bandi-Namangan viloyati hokimligiga ajratilgan 170,0 (bir yuz yetmish) million so‘m” hamda “3-bandi bilan Namangan shahar mahalliy budjetiga ajratilgan 600,0 (olti yuz) million so‘m” mablag‘ ajratish qismi chiqarilsin.

3. Xarajatlarni amalga oshirishga mas’ul tashkilotlar rahbarlariga:

ajratilgan mablag‘lar doirasida belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasiga taqdim etish;

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali sarflanishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni viloyat mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rishni ta’minlansin.

4. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Abdullayev)ga budjet xarajatlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish hamda viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasi (A.To‘rayev)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish hamda Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (B.Xodjiyev)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur Kengash qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi I.Ikromov, qaror ijrosini ta’minlash viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Baxriddinov zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi MUMINOV SOLIJON DJALILOVICH

Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining
2025-yil 3-noyabrdagi
VII-15-147-6-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yil uchinchi hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishi hisobidan yo‘naltirilayotgan mablag‘lar

№	Mablag‘ oluvchilar nomi	Tadbirlar nomi	Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m)
1	Namangan viloyat hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-sentabrdagi 162-con majlis bayoniga asosan, respublika budjetidan ajratilgan budjet ssudasini qaytarish uchun	2 000 000,0
2	Namangan viloyati hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 11-martdagi PQ-92-sonli qarori asosan, viloyatdagi 788 ta mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi “Keksalar maslahati” guruhlarining rag‘batlantirish uchun	621 296,0
3	Namangan viloyati hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-noyabrdagi PQ-405-sonli qarori ijrosiga muvofiq, O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi Namangan viloyati bo‘limining 2025-yil 25-sentabrdagi 01-09/277-sonli xatiga asosan, muxtoj bo‘lgan keksalarga moddiy yordam ko‘rsatish, reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta’minlash xarajatlari uchun	500 000,0

№	Mablag‘ oluvchilar nomi	Tadbirlar nomi	Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m)
4	Namangan viloyati hokimligi	“1 oktabr - o‘qituvchi va murabbiylar kuni” bayram tadbiri munosabati bilan umumxalq bayramini keng nishonlash maqsadida o‘tkaziladigan tadbir xarajatlari hamda esdalik sovg‘alar uchun	307 000,0
5	Namangan viloyati hokimligi	“25 oktabr - Ichki ishlar xodimlari kuni” bayramini keng nishonlash maqsadida o‘tkaziladigan tadbir xarajatlari hamda edalik sovg‘alar uchun	303 720,0
6	Namangan viloyati hokimligi	Viloyatga tashrif buyurgan yuqori martabali mexmonlar tashrifiga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish jarayonida tashrif buyurgan yuqori martabali mehmonlarni uchrashuv hamda yig‘ilish bo‘lib o‘tadigan obyektlarga yetkazib borish uchun ajratilgan maxsus avtotransportlarni yoqilg‘i xarajatlari uchun	250 000,0
7	Uchqo‘rg‘on tuman mahalliy budjeti	Uchqo‘rg‘on tumanidagi balansida binolari mavjud bo‘lmagan mahalla fuqarolar yig‘inlarini bino bilan ta’minlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	2 250 000,0
8	Namangan shahar mahalliy budjeti	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 16-fevraldagi PQ-59-son qarori ijrosiga muvofiq, Namangan shahrining transport va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish Bosh rejasi loyihasini ishlab chiqish xarajatlari uchun	800 000,0
9	Viloyat oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi tasarufidagi texnikumlar	O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri huzurida 2025-yil 4-iyulda o‘tkazilgan 120-sonli (VM 05/25-120) yig‘ilish bayoniga asosan, 2025-2026 yillar kuz-qish davriga tayyorlash maqsadida amalga oshiriladigan ishlar uchun	3 000 000,0
10	Viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi hamda 2023-yil 28-yanvardagi videoselektor yig‘ilishlarida hamda 2022-yil 5-fevraldagi 8-2022 (02-PA 1-1581) - sonli yig‘ilish bayoni bilan berilgan topshiriqlarga asosan, 10 nafar xorijlik mutaxassislarning ijara va ish haqi to‘lovlari uchun	320 000,0

№	Mablag‘ oluvchilar nomi	Tadbirlar nomi	Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m)
11	Viloyat sport boshqarmasi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSh) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida” 2025-yil 8-iyuldagi PQ-221-sonli qarori ijrosiga muvofiq, Los-Anjeles-2028 yozgi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga viloyat sportchilari puxta tayyorgarligi va muvaffaqiyatli ishtirokini tashkil etish maqsadida sportchilarni moddiy rag‘batlantirish xarajatlari uchun	670 000,0
12	Namangan mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati DM	Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida, viloyat hududidagi ichki yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari uchun	4 000 000,0
13	Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK	O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari-Investitsiyalar va tashqi savdo vaziri tomonidan tasdiqlangan (№05/1-518, 01.04.2022 y.) yo‘l xarita, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-fevraldagi 52-sonli qarori ijrosiga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qorao‘zak tumanida ijtimoiy soha va infratuzilmani yaxshilash bilan bog‘liq xarajatlari uchun	1 000 000,0
14	Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK	Namangan viloyatida “Obod qishloq” dasturi doirasida Uchqo‘rg‘on tuman Bo‘ston MFYdagi 35-sonli maktabni rekonstruksiya qilish xarajatlari uchun	300 000,0
15	Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 11-sentyabrdagi 392-son qarori ijrosiga muvofiq, Davlatobod tumanida joylashgan “Tennis Kort” binolarini ta’mirlash xarajatlari uchun	1 500 000,0
16	Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-sentyabrdagi 162-con majlis bayoniga asosan, Davlatobod tumandagi RK-2 ichki tizimini tiklash uchun 4, 5, 5-A va 6-kichik tumanlardagi 196 ta ko‘p qavatli turar joy binolarini ichki issiqlik	1 000 000,0

№	Mablag‘ oluvchilar nomi	Tadbirlar nomi	Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m)
		tarmoqlarini ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	
17	Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK	Viloyat hokimining 2021 yil 4 noyabrdagi 125-6-0-F/21-sonli Farmoyishiga asosan, Davlat test markazining Namangan viloyati bo‘limi uchun qurilgan katta sig‘imli bino va inshootlar hududini obodonlashtirish xarajatlari uchun	1 000 000,0
18	Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK	Viloyat xokimligi moddiy texnika bazasini rivojlantirish maqsadida viloyat xokimligiga qarashli maxsus avtosaroyni ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	1 000 000,0
19	Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 martdagi PQ-160-son qaroriga asosan, “Yangi O‘zbekiston bog‘i”ni tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar uchun (3-bosqich Sun’iy ko‘l xavzasi, sport maydonchalari hamda boshqa infratuzilma obyektlari qurilishi uchun)	8 000 000,0
20	Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK	Namangan shahar Bo‘ston MFYda 6-oila poliklinikasini rekonstruksiya qilish xarajatlari uchun	118 000,0
21	Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK	Namangan shahar “Kelajak tongi” MFY xududida 250-qatnovli oila poliklinika qurilishi bilan bog‘liq xarajatlari uchun	500 000,0
	Jami		**29 440 016**